Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘SPIRINLIK DAVRIDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ismailova Guljahon Fahratdinovna
40-sonli maktab psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23324481

Annotatsiya Ushbu maqolada o‘smirlik va o‘spirinlik davrlarining biologik psixologik ijtimoiy xususiyatlari asosan o‘spirinlik davriga qaratilgan bo‘lib bu davrdagi krezislar nizolar kelib chiqish sabablari va olimlarning bu davr haqidagi ilmiy qarashlari keltirilgan.Bundan tashqari xulasa va tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, o‘spirinlik, identifikatsiya, shaxs rivojlanishi, kognitiv o‘sish, psixologik barqarorlik akseleratsiya

Inson hayotining o‘smirlik va o‘spirinlik davrlari psixologik rivojlanishning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib,o‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish, biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning boshlanish bosqichi bo‘lsa, o‘spirinlik bu o‘zini anglash, ijtimoiy rolni egallash va kasbiy yo‘nalishni tanlash katta hayotga qadam qo‘yish bosqichidir.Bu davrlar ilmiy manbalarning ba’zilarida bir xil tushunchaga ega bo‘lsa,bazi manbalarda bir biriga mazmunan farqli bosqichlar sifatida keltirilgan. Hozirgi davrda bo‘lsa raqamli texnologiyada yashayotganimizning o‘zi ham o‘spirinlar hayotiga ta’sir etmasdan qolmaydi.G‘oziyevning “Ontogenez psixologiyasi” darsligida o‘smirlik davri 11 yoshda 15 yoshgacha bo‘lsa o‘spirinlik davri 15 yoshdan 18 ba’zi manbalar bu yosh 23 yosh davrni o‘z ichiga oladi.Bu o‘smirlik va o‘spirinlikning o‘ziga xos o‘zgarishlarga ega.

O‘smirlar nihoyatda taqlidchan bo‘lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo‘ladi. Ular tashqi ta’sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo‘ladilar.Tengdoshlar va o‘quvchilar bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga quyidagi toifadagi o‘quvchilar sabab bo‘ladi: Oilasi notinch, ota onasi janjalkash bolalar,ko‘pincha sinfda jizzakilik qilib, arzimagan sabablar tufayli ham tengqurlari bilan nizolashadi, ularni odatda sinfdoshlari va o‘qituvchilari «tarbiyasi og‘ir» bolalar deb ta’riflaydilar[1].

O‘smirlikdan keyingi davom etuvchi bu davr inson hayotidagi eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlardan biri bo‘lib «kamolot bo‘sag‘asi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi.Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o‘spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o‘rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda.O‘spirinlik davri inson hayotidagi eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlardan biridir. Ushbu davrda jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan chuqur o‘zgarishlar ro‘y beradi. Psixologlarning fikriga ko‘ra, bu bosqich shaxsning o‘z “Men”ini shakllantirish, mustaqil fikrlash va o‘z yo‘lini tanlash davridir. Ushbu bosqich “o‘tish davri” deb ham yuritiladi, chunki bola bolalikdan yetuklik sari harakatlanadi.

A.V. Petrovskiyning fikricha, ijtimoiy-psixologik munosabatlar shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida yosh davrlarini inobatga olgan holda amalga oshadi. Petrovskiy shaxs xarakteri va tarbiyasini rivojlantirishda ahamiyatga ega bo‘lgan 3 asosiy makrofazani ajratib ko‘rsatadi:

1. Bolalik davri.
2. O‘smirlik davri.
3. Yoshlik (o‘pirinlik) davri.

Bolalik davri — individning adaptatsiyalashuv jarayoni amalga oshadi, bunda, ma'lum me'yorlarni egallash bilan jamiyatga ijtimoiylashuv, ya'ni ijtimoiy adaptatsiya jarayoni yuz beradi (masalan: 2 yoshli bolaga choynakdagi choyning issiqligini o'rgatish)yoki bola 3 yoshdan boshlab bog'chaga borib boshlaydi bola jamiyatga shu orqali ijtimoiy jarayoni boshlanadi.Katta yoshdagilar uchun esa oila a'zolaridan biri,do'sti, hamkasbi kabilar ta'sir ko'rsatuvchi shaxs bo'lishi mumkin. Bu borada jins xususiyati ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Amerikalik Jon Xoelter, amerikalik o'smir — o'quvchilar bilan tadqiqot o'tkazib, shuni aniqlaganki, o'smir qizlar o'zining o'g'il bola tengdoshlarining fikrlarini ko'proq inobatga olar ekan, o'smir o'g'il bolalar esa o'z ota-onalarining fikrlarini ko'proq inobatga olishi aniqlangan. Demak bu tadqiqot shuni ko'rsatadiki har bir o'smir va osprinlar o'z fikrini shakllantirishda boshqalarning ta'sirga duch keladi[2].

Bizning tadqiqotimizda ham Xo'jayli tumani maktablarinning 10-11 sinflarda o'qiyotgan 55 nafar o'spirin o'rtasida kuzatish metodik orqali kuzatildi.Kuzatish o'spirinlarning muloqoti,o'qish va hissiy holatlari ijtimoiy muhitda oiladagi holati o'rganildi. Kuzatish metodi orqali olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'spirinlarning muloqot madaniyati va hissiy holati ularning oilaviy muhitiga bevosita bog'liq. Oila ichidagi iliq munosabat, ota-onaning e'tibori va qo'llab-quvvatlovi o'spirinning o'ziga ishonchini kuchaytiradi hamda o'qishdagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'plab olimlarning (E. Erikson, J. Piaget, L.S. Vygotskiy, A.V. Petrovskiy, D. Feldshteyn va boshqalar) tadqiqotlariga ko'ra, o'spirinlik davri shaxsning o'zini anglash, mustaqil fikr yuritish va ijtimoiy munosabatlarda o'z o'rnini topish davridir.

M.G.Davletshin kitobida keltirib o'tilgan malumotlarga ko'ra Akselerasiya natijasida bugungi ilk o'spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda.Shunday savol tug'iladi xo'sh bunday bo'lishining sababi nimada? Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab, 3-ta bosqichga ajratadilar: I bosqich - prepubertat; II bosqich - pubertat; III bosqich – postpubertat davr.

Bugungi o'spirinlik — bu rivojlanishning erta faollashgan, ammo murakkab bosqichi. U nafaqat biologik, balki ijtimoiy jihatdan tezlashayotgan hayot ritmiga moslashuv ifodasidir. Shu sababli psixologlar va pedagoglar yoshlarning bu jarayonda to'g'ri yo'naltirilishiga, hissiy va ijtimoiy tayyorgarligiga alohida e'tibor berishlari zarur[3].

Bugungi kunda o'spirinlik davrining avvalroq boshlanishi va uning chegaralarining o'zgarib borishi tabiiy biologik omillargina emas, balki jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, texnologik va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, akseleratsiya jarayoni — ya'ni bolalarda jismoniy va fiziologik yetilishning tezlashuvi — bu jarayonning tashqi ko'rinishidir. Lekin menimcha, asosiy sabab bolaning atrofidagi axborot muhiti va ijtimoiy tajriba imkoniyatlarining erta kengayishidir. Rus psixologi L.S.Vigotskiy 1920 yillardayoq ilk o'spirinlarning rivojlanishi haqida nazariyalar ko'pligini ta'kidlagan edi. Ilk o'spirinlar rivojlanishi bo'yicha 3ta yirik yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.Satsiogenetik psixogenetik biogenetik nazariyalar. Taraqqiyotning biogenetik nazariyalarida rivojlanishning biologik determinantlariga asosiy urg'u beriladi. Rivojlanish jarayonining o'zi bosqichlari universal bo'lgan yetilish sifatida talqin etiladi. Bu yo'nalishning yorqin namoyondalaridan biri XX asr amerikalik psixologi S.Xolldir. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish psixologiyasining asosiy qonuni biogenetik "rekapitulyatsiya qonuni" hisoblanadi, unga ko'ra individual rivojlanish, ontogenez filogenezning asosiy bosqichlarini takrorlaydi. Go'daklik rivojlanishning

hayvonot fazalarini takrorlaydi. Bolalik qadimgi odamlarning asosiy mashg‘ulotlari ovchilik va baliq ovlash bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. 8 dan 12 yoshgacha bo‘lgan davr o‘smirlikdan oldingi davr deb ataladi, yovvoyilik tugallanib, madaniyatning boshlanishi deb ta’riflaydi.12-13 yoshdan 22-25 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘spirinlik deb ataladi, kattalikning boshlanishi, romantizm davri deb ataladi. Bu davrda tashqi va ichki nizolar avj olib, insonda “individuallik hissi” paydo bo‘ladi. Holning bu nazariyasi psihologlar tomonidan tanqid qilinadi[4].

Bu davrlar hayotdagi hal qiluvchi bosqich bo'lib, u asosan insonning keyingi taqdirini belgilaydi. Buni Ivan Tsarevich to‘xtab qolgan, o‘yga cho‘mgan chorrahaga qiyoslash mumkin: “Agar chapga borsang... o‘ngga borsang...” deb yozilgan tosh yonida bir yo‘l inson o‘z hayoti uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan, borligining ma’nosini anglagan, hayot quvonchini his qilganda haqiqiy balog‘atga yetadi. Ikkinchisi esa ko'plab muammolarga duchor bo'lgan xayoliy, go'dak yoki antisosial balog'atga olib keladi.

Bu davrda iqtisodiy va madaniy beqarorlik sharoitida, oilaviy inqirozlar sharoitida ulg‘ayishi ayniqsa qiyin. Ijtimoiy muhitdagi farqlarga qaramay, ularning deyarli barchasi bu davrni keskin boshdan kechiradi: ular ota-onalar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarida tajovuzkor, itoatsiz bo'lib qoladilar. Bunday vaziyatda hatto eng g'amxo'r ota-onalar va o'qituvchilar ham ko'pincha o'zlarini yordamsiz deb bilishadi. Farzandlariga nima bo'layotganini tushunolmay, ular o'z farzandlarining inqirozini kuchaytiradigan yo'l bilan harakat qilishadi. Ayni paytda, ota-onalarning o'zlari ko'pincha stressga duchor bo'lib, bolalarining hissiy va jismoniy farovonligiga salbiy ta'sir qiladi[5].

Xulosa qilib aytganda, o‘spirinlik davri — bu shaxsning hayotga ongli kirib kelish, o‘z yo‘lini topish va ichki dunyosini shakllantirish bosqichidir. To‘g‘ri yo‘naltirilgan psixologik va pedagogik ta’sir bu davrda sog‘lom, mustaqil va mas’uliyatli shaxs yetishib chiqishiga zamin yaratadi. O‘spirinlik davrining psixologik o‘zgarishlari ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u nafaqat biologik yetilish, balki ijtimoiy muhit, tarbiya, ta’lim, oila va madaniy qadriyatlar ta’siri bilan belgilanadi. Shu bois bu bosqichda o‘spirin shaxsining shakllanishi murakkab, ba’zan ziddiyatli kechadi, ammo bu ziddiyatlar tabiiy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqamli muhit, axborot oqimining tezligi va akseleratsiya jarayoni tufayli o‘spirinlik yoshining boshlanishi avvalgiga nisbatan erta kechmoqda. Natijada yoshlar o‘zini kattalar jamiyatining faol a’zosi sifatida his etadi, bu esa ularning psixologik barqarorligi, emotsional muvozanati va ijtimoiy moslashuviga qo‘shimcha talablar qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedova M. д Pedagogik konfliktologiya [Matnl: укув кулланма / Ahmedova M.-Toshkent: ≪Donishmand ziyosi≫ МЧЖ, 2020. - 304-b.
2. Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma N. Ismoilova, D. Abdullayeva;o‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.Toshkent: 0 ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.-168 b.
3. M.G.Davletshin, Sh.Do’stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To’ychieva, M. Djumabaeva Yosh va pedagogik psixologiya (o’quv qo’llanma) TOShKENT -2007
4. Umarov B.M. - psixologiya fanlari doktori, professor D.B.BOTIROVA 2021 mina kitab boyincha ishlaw kk hamma malumot bar nazariyalar
5. Психология подроск Учеб пособие для студ высш Учеб заведений-2-е ИЗД испр_ М Издательский центр «Академия» 2005 160 с